



**BUXORO KHANATE FOREIGN POLICY IN HISTORICAL
SOURCES AND ITS HISTORICAL ANALYSIS**

Dilovar Nasriddinov

Lecturer, Department of History Faculty of Pedagogy and Social Sciences
Termez State Pedagogical Institute

Asadbek Choriyev

Fourth-Year Student, History Education Program Faculty of Pedagogy and Social
Sciences Termez State Pedagogical Institute

Abstract

This article analyzes the development of the foreign policy of the Bukhara Khanate (Emirate), its main directions, and its representation in local and foreign historical sources. The study examines diplomatic relations during the Shaybanid, Ashtarkhanid and Manghit periods, relations with neighboring states, and political changes caused by the expansion of the Russian Empire into Central Asia. The works of local historians such as Ahmad Donish, Muhammad Vafo Karmanagi, Mirzo Abdulazim Somi and Hafiz Tanish Bukhari, as well as Russian and European travelers and orientalists, are comparatively analyzed. The research concludes that the foreign policy of the Bukhara Khanate was closely connected with domestic political conditions, economic interests and the international situation.

Keywords

Bukhara Khanate, foreign policy, diplomacy, historical sources, Russian Empire, Ahmad Donish, historical analysis.

**BUXORO XONLIGINING TASHQI SIYOSATINI MANBALAR
ASOSIDA YORITILISH VA TARIXIY TAHLIL.**

Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix
kafedrası o'qituvchisi
Nasriddinov Dilovar





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix
ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Choriyev Asadbek

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro xonligi (amirligi) tashqi siyosatining tarixiy taraqqiyoti, uning asosiy yo'nalishlari hamda mahalliy va xorijiy manbalarda yoritilishi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Shayboniylar, Ashtarxoniylar va Mang'itlar davrida amalga oshirilgan diplomatik munosabatlar, qo'shni davlatlar bilan aloqalar hamda Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga kirib kelishi natijasida yuz bergan siyosiy o'zgarishlar o'rganildi. Shuningdek, Ahmad Donish, Muhammad Vafo Karmanagiy, Mirzo Abdulazim Somiy, Hofiz Tanish Buxoriy kabi mahalliy mualliflar asarlari hamda rus va yevropalik sayyohlar, diplomatlar va sharqshunoslarning ma'lumotlari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida Buxoro xonligi tashqi siyosati davlatning ichki siyosiy holati, iqtisodiy manfaatlari va xalqaro vaziyat bilan chambarchas bog'liq holda shakllanganligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Buxoro xonligi, Buxoro amirligi, tashqi siyosat, diplomatiya, manbashunoslik, Rossiya imperiyasi, Ahmad Donish, tarixiy tahlil.

Buxoro xonligining xalqaro savdo aloqalari va tashqi siyosat. Buxoro xonligi tashqi siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishdan iborat bo'lgan. Davlat hududi Buyuk Ipak yo'lining muhim tarmoqlari kesishgan hududda joylashgani sababli savdo-sotiq iqtisodiyotning asosiy tayanchlaridan biri hisoblangan. Buxoro savdogarlari Hindiston, Eron, Afg'oniston, Xitoy, Rossiya va Usmonli davlati bilan faol savdo aloqalarini olib borganlar. Savdo karvonlari orqali ipak, paxta, qorako'l terisi, gilam, metall buyumlar va hunarmandchilik mahsulotlari eksport qilingan¹. Rossiyadan esa metall buyumlar, qurol-yarog', gazlama va sanoat mahsulotlari olib kelingan. Savdo munosabatlari ko'pincha diplomatik aloqalarning rivojlanishiga ham xizmat qilgan.

¹ Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi. – B. 211.





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

Shayboniylar davrida tashqi siyosat. Shayboniylar davrida Buxoro davlatining asosiy tashqi siyosiy maqsadi Movarounnahr hududlarini birlashtirish va davlat hududlarini kengaytirishdan iborat edi. Muhammad Shayboniyxon Eron Safaviylari bilan uzoq davom etgan siyosiy kurash olib bordi. Bu kurashning asosiy sababi Xuroson hududlarini nazorat qilish masalasi edi². Abdullaxon II davrida Buxoro davlatining xalqaro mavqei yanada mustahkamlandi. U Balx, Badaxshon va Xurosonning ayrim hududlarini davlat tarkibiga qo'shishga muvaffaq bo'ldi. Hofiz Tanish Buxoriy ma'lumotlariga ko'ra, Abdullaxon II davrida Buxoro diplomatiyasi yuqori darajada rivojlangan³.

Ashtarxoniylar davrida tashqi siyosat. XVII asr boshlarida Ashtarxoniylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi tashqi siyosatda yangi bosqichni boshlab berdi. Bu davrda Eron bilan munosabatlar murakkab tus oldi. Imomqulixon va Nodir Muhammadxon hukmronligi davrida diplomatik aloqalar va harbiy to'qnashuvlar navbatma-navbat davom etdi⁴. Rossiya bilan savdo aloqalari ham aynan shu davrda faol rivojlandi. Astraxan orqali olib borilgan savdo munosabatlari ikki davlat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan⁵.

Mang'itlar davrida tashqi siyosat. Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligi tashqi siyosatining asosiy maqsadi davlat mustaqilligini saqlash va qo'shni davlatlar bilan muvozanatli munosabatlarni yo'lga qo'yishdan iborat bo'ldi. Amir Shohmurod davrida Afg'oniston va Eron bilan diplomatik aloqalar rivojlandi. Amir Haydar davrida esa Qo'qon xonligi bilan munosabatlar keskinlashdi. Toshkent, O'ratepa va Xo'jand hududlari uchun kurashlar olib borildi.

Buxoro va Qo'qon munosabatlari. Qo'qon xonligi bilan munosabatlar XVIII–XIX asrlar davomida Markaziy Osiyoning siyosiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Amir Nasrullo davrida Qo'qon xonligiga qarshi bir necha harbiy yurishlar amalga oshirildi.

² Bartold V.V. Turkiston mo'g'ullar istilosi davrida. – B. 311.

³ Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. – B. 287.

⁴ Muhammad Yusuf Munshiy. Tarixi Muqimxoniy. – B. 97.

⁵ Ivanov P.P. Ocherki po istorii Sredney Azii. – S. 45.





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

1842-yilda Qo‘qonning egallanishi Buxoro tashqi siyosatining eng muhim voqealaridan biri hisoblanadi. Biroq bu hukmronlik uzoq davom etmadi va Qo‘qon yana mustaqilligini tiklashga muvaffaq bo‘ldi.

Buxoro va Xiva munosabatlari. Buxoro va Xiva o‘rtasidagi munosabatlar ko‘pincha Amudaryo havzasi va savdo yo‘llari uchun kurash bilan bog‘liq bo‘lgan. Ayrim davrlarda ittifoqchilik munosabatlari kuzatilgan bo‘lsa-da, ko‘pincha harbiy qarama-qarshiliklar ustunlik qilgan. Mahalliy manbalarda ikki davlat hukmdorlari o‘rtasidagi diplomatik yozishmalar va elchilar almashinuvi haqida muhim ma‘lumotlar uchraydi.

Eron bilan diplomatik va siyosiy munosabatlar. Buxoro xonligi va Eron o‘rtasidagi munosabatlar Markaziy Osiyo tarixidagi eng murakkab xalqaro munosabatlardan biri hisoblanadi. Safaviylar davridan boshlab ikki davlat o‘rtasida Xuroson hududi uchun kurash olib borilgan. Muhammad Shayboniyxon va Shoh Ismoil o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar uzoq muddat davom etgan siyosiy ziddiyatlarning boshlanishiga sabab bo‘lgan. XVI–XVII asrlarda ikki davlat o‘rtasida harbiy to‘qnashuvlar bilan bir qatorda diplomatik muzokaralar ham olib borilgan. Nodirshohning 1740-yildagi Buxoroga yurishi mintaqa siyosiy hayotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Biroq keyingi davrlarda ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar nisbatan barqarorlashdi va savdo aloqalari qayta tiklandi.

Afg‘oniston bilan aloqalar. Buxoro amirligining janubiy tashqi siyosatida Afg‘oniston alohida o‘rin egallagan. Ayniqsa Balx va Badaxshon hududlari ikki davlat manfaatlari to‘qnashadigan hududlar hisoblangan. Mang‘itlar davrida Afg‘oniston hukmdorlari bilan diplomatik aloqalar muntazam ravishda davom ettirilgan. Elchilar almashinuvi va savdo karvonlarining harakati davlatlar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarning muhim qismi bo‘lgan⁶.

⁶ Hayit B. Turkiston Rossiya bilan Xitoy orasida. – B. 96.





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

Rossiya imperiyasi bilan munosabatlar. Rossiya va Buxoro o'rtasidagi munosabatlarni shartli ravishda uch bosqichga bo'lish mumkin:

Birinchi bosqich (XVI–XVIII asrlar). Bu davrda munosabatlar asosan savdo aloqalari va diplomatik missiyalar orqali amalga oshirilgan. Rossiya Buxoro orqali Sharq mamlakatlari bilan savdo qilish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Ikkinchi bosqich (XIX asrning birinchi yarmi). Bu davrda Rossiya Markaziy Osiyodagi siyosiy ta'sirini kuchaytirishga harakat qildi. Diplomatik missiyalar soni ortdi, ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etildi va harbiy razvedka faoliyati kuchaydi.

Uchinchi bosqich (1860–1880-yillar). Bu davr Rossiyaning ochiq harbiy bosqinchilik siyosati bilan xarakterlanadi. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga nisbatan olib borgan bosqinchilik siyosati Buxoro amirligining tashqi siyosatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. 1868-yilda Zirabuloq yaqinidagi jangda Buxoro qo'shinlarining mag'lubiyati natijasida amirlik Rossiya protektoratiga aylantirildi. Shundan so'ng Buxoro tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari Rossiya manfaatlari bilan bog'lanib qoldi. Ahmad Donish Rossiya bilan munosabatlarni tahlil qilar ekan, amirlikda zamonaviy harbiy va diplomatik islohotlar o'tkazilmaganini tanqid qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – B. 154.
2. Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe. – B. 34.
3. Burnes A. Travels into Bokhara. – P. 78.
4. Muhammad Vafo Karmanagiy. Tuhfat ul-xoniy. – B. 125.
5. Xanykov N. Opisanie Bukharskogo khanstva. – S. 62.
6. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi. – B. 211.
7. Bartold V.V. Turkiston mo'g'ullar istilosi davrida. – B. 311.
8. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. – B. 287.
9. Muhammad Yusuf Munshiy. Tarixi Muqimxoniy. – B. 97.

